| Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi | 1201 |
| G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li | |
| Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari | 1207 |
| Ja'sur Mexirzoqov Artiqboy o'g'li | |
| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами | 1212 |
| Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы | |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar | 1218 |
| Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna | |
| Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili..... | 1222 |
| Nematov Inatillo Ubaydullayevich | |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish..... | 1228 |
| Umurzakova Adiba Ochilovna | |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari..... | 1232 |
| Raxmanov Iloxom Xurramovich | |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане | 1238 |
| Пулатова Сурайё Юлдашевна | |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике..... | 1242 |
| Рафиева Зарина Хусановна | |



| | |
|--|------|
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries | 1246 |
| Akhmedov Doniyorbek | |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari | 1250 |
| Azizova Manzura Ibragimovna | |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production..... | 1254 |
| Dilfuza Baxramovna Safarova | |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari..... | 1261 |
| Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich | |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari..... | 1266 |
| Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna | |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati..... | 1272 |
| Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li | |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari | 1277 |
| Ibragimov Gafurjan Axmetovich | |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi..... | 1282 |
| Ibragimov Mansur Axmedovich | |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)..... | 1286 |
| Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich | |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами..... | 1295 |
| Мансурова Севара Мансуровна | |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash | 1298 |
| Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna | |
| Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений..... | 1302 |
| Кучаров Абдор Сабирижанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи | |
| Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi | 1310 |
| Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi | |
| Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari..... | 1319 |
| Davronov Saxobiddin Faxriddinovich | |
| O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili | 1324 |
| Axmedov Sayfullo Normatovich | |
| Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni | 1334 |
| Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich | |
| Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective | 1338 |
| Kholiyorova Shokhista | |
| Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari | 1341 |
| Taniyev Ahmadjon Bahromovich | |
| Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari | 1347 |
| Masharipov Maxmud Bekturdiyevich | |
| Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni | 1352 |
| O. Jono'zoqov | |
| Sanoatda resurs tejamliligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish | 1358 |
| Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li | |



MAMLAKAT IQTISODIYOTINING SAMARALI RIVOJLANISHIDA HAYOT SUG'URTASINING O'RNI

O. Jono'zoqov

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Qurilish iqtisodiyoti va menejment kafedasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni ko'rib chiqilgan, mamlakatda hayot sug'urtasini amalga oshirish tartibi va uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilingan hamda hayot sug'urtasini ahamiyati rivojlanish istiqdolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, hayot sug'urtasi, sug'urta tashkilotlari, uzoq muddatli sug'urta, sug'urta bozori.

Abstract: This article examines the role of life insurance in the socio-economic development of the country, analyzes the procedure for introducing life insurance in the country and the factors hindering its development, and also emphasizes the importance of life insurance and the potential for its development.

Key words: insurance, life insurance, insurance organizations, long-term insurance, insurance market.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль страхования жизни в социально-экономическом развитии страны, анализируется порядок внедрения страхования жизни в стране и факторы, сдерживающие его развитие, а также подчеркивается значение страхования жизни и потенциал его развития.

Ключевые слова: страхование, страхование жизни, страховые организации, долгосрочное страхование, страховой рынок.

KIRISH

Hozirgi vaqtda mahalliy sug'urta bozori tez va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda, uning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda, sug'urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi barqarorlashdi, bu esa yaqin istiqbolda sug'urta kompaniyalarining ham mahalliy sug'urta bozoridagi ham xalqaro sug'urta bozorlaridagi rolini sezilarli darajada oshishidan dalolat beradi. Hayot sug'urta bozori sug'urta bozorining tashkil qiluvchi qismi sifatida fuqarolar farovonligini ta'minlash, mamlakat investitsiya salohiyatini shakllantirish va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim moliya instituti bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida Yangi O'zbekistonni rivojlanishida sug'urta tizimi alohida o'rni borligiga ahamiyat berilgan: "...sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish" maqsad sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki aholini ijtimoiy himoya qilishda yangi sug'urta turlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Hozirgi zamonaviy dunyoda hayot sug'urtasi – mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlantirishning eng muhim va ahamiyatli elementlaridan biridir. Hayot sug'urtasi fuqarolar hayotiga xizmat qiluvchi, davlatga ijtimoiy muammolarni hal etishda ko'maklashuvchi, ichki investitsiya resurslari yetishmasligi muammolarini hal etishda ishtirok etuvchi eng muhim institutdir. Hayot sug'urtasi orqali jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini amalga oshirish (qondirish) mumkin.

Hayotni jamg'armali sug'urtalash ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida alohida fuqarolar uchun jamg'arish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu bizga quyidagilarga imkon beradi: sug'urtaning aholining shaxsiy jamg'armalarini tashkil etish shakli sifatidagi maxsus ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi haqida gapirish; keksa yoshdagi fuqarolar, nogironlar va sog'lom fuqarolarga iqtisodiy yordam ko'rsatish yukini asosan sug'urtalovchilar zimmasiga yuklash. Nafaqa sug'urtasi fuqarolarga davlat nafaqasi to'lovlariga bog'liq bo'lmagan qo'shimcha



daromad olish imkonini beradi, nafaqat keksalik bo'yicha nafaqa, balki nogironlik nafaqasini ham; fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti uchun davlat xarajatlarini kamaytirish orqali budjetning xarajatlar qismidagi yuklamani kamaytiradi, va davlat aholining eng kam ta'minlangan qatlamini himoya qilishga e'tiborini qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, u aholining sug'urta himoyasini tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, mamlakatda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mehnat qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan, turmush darajasining pasayishiga va qo'shimcha xarajatlarga olib keladigan turli xil hodisalar ro'y berishida ta'minlashning yaxlit, eng mukammal tizimini tashkil etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, hayot sug'urtasi kompaniyalarining o'ziga xos mexanizmi, ya'ni zahiralarni uzoq muddatli investitsiyalash tufayli hayotni sug'urtalash iqtisodiyotning katalizatori, ichki milliy investitsiyalarning asosiy manbalaridan biridir. Shu sababli, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar asosiy institutsional investorlar qatoriga kiradi. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati sug'urtalovchilarning jamg'arilgan mablag'lari harakatini (aylanmasini) faollashtiradi va inflyatsiya jarayonlari dinamikasini pasaytirgan holda, iqtisodiyotga barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki hodisa o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga multiplikativ samara beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hayot sug'urtasining mohiyati va mazmunini o'rganish muammosiga ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar e'tibor qaraganlar, ular orasida N. B. Grishenko, V. S. Goxman, A. P. Arxipov, A. S. Adonina, N. G. Adamchuk, E. K. Turbina, A. Lelchuk va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Masalan, N. B. Grishchenko, A. P. Arxipov va A. S. Adoninlar tomonidan hayot sug'urtasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "hayot sug'urtasi deganda, odatda, sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning vafot etgani yoki uning ma'lum bir muddatgacha yashaganligi holatida sug'urta mukofotlarini to'lash evaziga sug'urtalanuvchiga yoki u tomonidan ko'rsatilgan uchinchi shaxslarga (naf oluvchilar) ma'lum miqdordagi pulni (sug'urta summasini) to'lash kafolatini taqdim etilishi tushuniladi. Bunda, sug'urtalanadigan xavf deganda, muayyan shaxsning (sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning) umr ko'rish davomiyligining o'rtacha qiymatidan tasodifiy og'ishi (chetlanishi) tushuniladi. Xavf bo'lib o'limning o'zi emas, balki uning sodir bo'lish vaqti hisoblanadi".

Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda mehnat qobiliyatining yo'qotilishi va buning oqibatida qo'shimcha ta'minotga zaruriyatning paydo bo'lishi ham hayotni sug'urtalashga qabul qilinadigan xavflardan biridir. Shu munosabat bilan hayotni sug'urtalashni tariflashda ba'zi olimlar nafaqat insonning umr ko'rish davomiyligiga va o'lim xavfiga va qolgan umriga, balki jismoniy qobiliyat darajasiga, shu jumladan mehnatga layoqatligiga, shu jumladan mehnat qobiliyatining yo'qotilishiga ham asoslanadilar.

Masalan, S. V. Yermasov va N. B. Yermasova hayot sug'urtasining mohiyatini uning foydaliligi va fuqarolarning manfaatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadilar: "Hayot sug'urtasining xususiyatlari sug'urtalangan voqealar deb ataladigan salbiy va qulay oqibatlarga olib keladigan tasodifiy hodisalar yuz berganda odamlar uchun maqbul daromad, hayot darajasi va sifatini ta'minlashdan iborat. Shu munosabat bilan hayot sug'urtasi - bu sug'urta turi bo'lib, u orqali fuqarolarning shaxsiy va oilaviy daromadlari yoki ular tomonidan erishilgan farovonligini mustahkamlash uchun sug'urtaviy himoyasi ta'minlanadi. Agar bu maqsadni fuqarolar manfaatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilsa, u turmush darajasini pasaytiradigan kutilmagan, xavfli, tasodifiy hodisalardan turli daromad manbalari bilan bog'liq mulkiy manfaatlarni himoya qilishni ifodalaydi".

ASOSIY QISM

Mamlakatda sug'urtaning rivojlanish darajasi va aholining sug'urta muassasalariga bo'lgan ishonchi darajasi hayotni sug'urtalash bozorini rivojlantirishning eng muhim omillari hisoblanadi. Bozorda sug'urta xizmatlarini tashkil etish va ko'rsatishning yuqori sifatli jarayonini ta'minlashga qodir bo'lgan aktuar va boshqa tashkilotlar hamda mutaxassislarning mavjudligi jarayonning uzluksizligini ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat moliya bozorining rivojlanish darajasi sug'urta bozori, va ayniqsa, hayot sug'urtasi bozorining rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Sug'urta kompaniyasining boshqaruv ta'siri yo'naltirilgan tashqi muhitning muhim tarkibiy qismi bu moliya bozorida raqobat bo'lib, u aholi o'rtasida hayotni sug'urtalashga bozor talabining holatiga bevosita ta'sir qiladi. Hayot sug'urtasi bo'yicha kompaniyalar sug'urta bozori uchun kurashda nafaqat boshqa sug'urtachilar, balki moliya va bank institutlari tomonidan ham qattiq raqobatni boshdan kechirmoqda.

Sug'urta xizmatlariga bo'lgan bozor talabi tashqi muhitning asosiy elementlaridan biridir: unga sug'urtalovchining bozor tijorat faoliyatining asosiy harakatlari qaratilgan. Sug'urta xizmatlariga bo'lgan bozor talabi iqtisodiy va gumanitar jihatlariga ega. Shveysariyaning Swiss Re qayta sug'urta kompaniyasining tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, sug'urtaga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar mavjud:



| | |
|---|--|
| <p>Umumiy</p> <ul style="list-style-type: none"> • iqtisodiy rivojlanish; • aholi farovnligi va daromadlarni taqsimlash usullari; • din va madaniyat; • ta'lim darajasi; • mulkiy huquqlarga rioya qilish va qonuniylikka ishonch; | <p>omillar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • taklif qilingan mahsulotlar; • savdo kanallari; • xavf haqida anglash va xabardorlik; • sug'urta qonun hujjatlari; • sug'urtaga ishonch. |
| <p>Hayotni sug'urtalashga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi omillar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • iqtisodiy barqarorlik (inflyatsiya darajasi; valyuta barqarorligi); • jamg'armalar bo'yicha foiz stavkalari; • demografik ko'rsatkichlar; • soliq imtiyozlari; • nafaqa tizimi. | <p>Umumiy sug'urta turlariga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi omillar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • majburiy sug'urta; • tabiiy ofatlarning ta'sir darajasi; • sog'liqni sug'urtalash tizimi va ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilish; • da'volarni tez va sifatli ko'rib chiqish va to'lovlar darajasi. |

Xorijiy davlarida sug'urta kompaniyalariga pul mablag'larini joylashtirgan aholi ulushi bank tuzilmalari xizmatlaridan foydalanuvchi aholi ulushiga nisbatan ancha yuqori. Uzoq muddatli hayotni sug'urtalash AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda hattoki millatning qurilishi deb ham ataladi. O'zbekiston Respublikasi uchun hayot sug'urtasini rivojlantirish nihoyatda muhim, biroq bu jarayon ko'plab cheklovchi omillarning mavjudligi to'sqinlik qilganligi sababli sekin amalga oshirilmoqda.

Ushbu tadqiqot doirasida biz quyidagi omillarni batafsilroq o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, hayot sug'urtasi o'z ma'nosiga ko'ra uzoq muddatli sug'urta turi bo'lib, polislarining amal qilish muddati 10-20 yil va undan ko'proq muddatga qo'llaniladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli investitsiyalar aholi uchun qiziqish uyg'otmaydi. Bundan tashqari, aholida uzoq muddatli investitsiyalarga ishonchsizlik bilan qarash saqlanib qolmoqda. Jismoniy shaxslarning kayfiyatidagi burilish nuqtasi, odatda, asosiy barqaror daromad manbai ish haqi bo'lgan o'rta statistik mijozning konservatizmi tufayli bir necha yillik barqarorlashuvdan so'ng sodir bo'ladi.

Ikkinchidan, hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holati va barqarorligiga jiddiy talablar qo'yadi, chunki u sug'urta mukofotlarini (haqlarini) kapitallashtirish jarayoniga asoslanadi. Umumiy beqarorlik va moliyaviy inqirozlar ehtimoli sharoitida sug'urtalovchilar uzoq muddatli istiqbol uchun kafolatlar bera olmaydilar. Aholining ularga, qolaversa, boshqa moliya institutlariga ham bo'lgan ishonchi aniq yetarli emas. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mablag'larning saqlanishini kafolatlash masalasi juda muhim bo'lib qolmoqda. Bu, ayniqsa, hayotni uzoq muddatli sug'urtalash turlariga tegishli, chunki uzoq muddatli hayotni sug'urtalash – bu aholi jamg'armalarini uzoq muddatli investitsiyalarga aylantirish (transformatsiyalash) mexanizmidir.

Uchinchidan, barcha mamlakatlarda hayot sug'urtasi asosan daromadlari xarajatlaridan ma'lum darajada yuqori bo'lgan, ularning bir qismini o'z merosxo'rlari uchun jamg'arishni yoki qo'shimcha daromad olish uchun investitsiya qilishni xohlaydigan aholining o'rta qatlamlari uchun mo'ljallangan. Hayot sug'urtasining uzoq muddatli turlariga bo'lgan ehtiyoj istalgan turmush darajasiga erishilganda va odamlar o'z farovonligini himoya qilish va saqlash haqida o'ylay boshlaganlarida paydo bo'ladi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu o'tish har bir oila a'zosi uchun oyiga kamida 300 AQSh dollari daromad darajasiga to'g'ri keladi. Aynan shu daromad darajasidan sug'urta xizmatlari iste'molining keskin o'sishi boshlanadi. Binobarin, uzoq muddatli hayotni sug'urtalashga bo'lgan talabning asosiy cheklovchisi umumiy aholi daromadlari darajasining pastligidir. Ijobiy demografik balansda O'zbekiston Respublikasi va ilg'or mamlakatlar o'rtasidagi turmush darajasidagi tafovut ahamiyatli bo'lmagan tarzda qisqaradi. Mamlakatimiz aholining turli guruhlar va qatlamlari o'rtasida daromadlarning notekis taqsimlanishi sabab bo'lib qolmoqda.

To'rtinchidan, hayotni sug'urtalashning jamg'arish va to'plash funksiyasi rivojlangan investitsiya bozori mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. O'zbekistonda bunday bozor shakllanish bosqichida bo'lib, hayotni sug'urtalash sohasida faoliyat yurituvchi sug'urtalovchilarga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar deyarli yo'q.

Shuningdek, milliy sug'urta tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalari qatoriga mamlakatimizda sug'urtalovchilarning mablag'larini hayotni sug'urtalash sohalariga investitsiyalash yo'nalishlarini kengaytirishni ta'minlovchi qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutuvchi investitsiya siyosatini takomillashtirish kiradi. Hayotni sug'urtalashning uzoq muddatli turlari iqtisodiy



sodiyotning investitsiya resurslari manbaiga, aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali mexanizmiga aylanishi kerak. Buning uchun sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi sug'urta turlari va shartnomalar muddatini hisobga olgan holda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy mablag'larini investitsiya qilish yo'nalishlarini muvofiqlashtirishi, ularning investitsiyalari uchun standartlarni belgilashi, shuningdek uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirishi kerak. Hayotni sug'urtalashning uzoq muddatli turlaridan olingan mablag'larni joylashtirish tartibi ularni investitsiya qilish bilan bog'liq xavflarni minimallashtirishi kerak.

Sug'urta bozorining normal faoliyat ko'rsatishi uchun sug'urtaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy normativlarni (me'yorlarni) qat'iylik bilan ishlab chiqish va joriy etish zarur. Ular xavflarni baholashni hisobga olgan holda o'z kapitali miqdori va aktivlar miqdori o'rtasidagi oxirgi nisbatni; aktivlarning majburiyatlardan eng kam darajada oshib ketishi darajasini (to'lov qobiliyati marjasi); sug'urta majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lgan sug'urta zaxiralari darajasini; balans likvidligi ko'rsatkichlarini; alohida xavf uchun eng yuqori darada javobgarlikni aniq belgilashlari kerak.

Hayotni sug'urtalashning uzoq muddatli turlarini rivojlantirishning muhim sharti bo'lib hayotni sug'urtalash sohasining kapitallashuvi darajasini oshirish hisoblanadi. Jamg'armali hayotni sug'urtalashning ahamiyati va sug'urtalovchilarning majburiyatlari bo'yicha kafolatlar tizimini yaratish zarurligini hisobga olgan holda, hayotni sug'urtalashning uzoq muddatli turlari bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalari pulini yoki assotsiatsiyasini shakllantirish barqarorlikni sezilarli darajada mustahkamlashi mumkin. Bunday tashkillashtirish bozor ishtirokchilariga sug'urta biznesining ushbu turini rivojlantirishga birgalikdagi yondashuvlarni ishlab chiqish va davlat organlari bilan munosabatlarda yagona pozitsiyani shakllantirish imkonini bergan bo'lardi.

Tarixan shunday bo'lganki, jismoniy shaxslar bilan faoliyat yuritishga yo'naltirilgan sug'urta kompaniyalari agentlik tarmog'iga ega bo'lishlari kerak, sug'urta mahsulotlarini sotish hajmi uning mutaxassislarining professionallik darajasiga bevosita bog'liqdir. Agentlik tarmoqlarining o'zi juda qimmat loyiha bo'lib, infratuzilmani moliyalashtirish va ko'p sonli menejerlarni talab qiladi. Hozirgi iqtisodiy vaziyatda hayotni sug'urtalash bo'yicha bunday loyihalarni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lgan kompaniyalar unchalik ko'p emas. Keng agentlik tarmog'ini yaratish xodimlarni ishga olish, o'qitish, savdo bo'yicha seminarlar va treninglar o'tkazish uchun katta mablag' talab qiladi.

Hayotni sug'urtalash sohasidagi mavjud sug'urta agentlarining ish sifati yanada yaxshilanishni talab qiladi. Sug'urta agentlari mijozga barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim etmaydi. Ko'pincha mijoz qanday mahsulotni sotib olgani haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Bunda, birinchi yil komissiya mukofitini (haqini) olgan sug'urta agenti kelajakda mijoz bilan ishlamaydi. Albatta, kompaniyalar barcha kerakli maslahat va yordamni taqdim etadilar, ammo bu mijoz uchun qo'shimcha xarajatlar va ma'lum noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Ko'pgina sug'urta agentlarining bunday yondashuvi bozorda salbiy iz qoldiradi va sug'urta kompaniyasining obro'siga sezilarli darajada putur yetkazadi, shundan so'ng mijoz bilan ishlash juda qiyin bo'lib qoladi.

Sug'urta mahsulotini sotish hajmiga kompaniyaning taniqli brendga egaligi, potensial sug'urtalovchilarning maqsadli guruhi talablarini hisobga olgan holda ommaviy axborot vositalarida, televideniya keng reklama va axborot kampaniyasini o'tkazish sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tarmoqlangan savdo tarmog'ini yaratish – bu uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, yaxshi yo'lga qo'yilgan agentlik tarmog'iga ega bo'lmagan sug'urta kompaniyasi qimmatli vaqtini yo'qotishi mumkin, bu esa raqobatchilar tomonidan mijozlar bazasini kengaytirish va sug'urta mahsulotlarini bozorga chiqarish uchun foydali tarzda sarflanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urtalovchilar uchun mahalliy investitsiya vositalari to'plamining juda past investitsiyaviy jozibadorligini va tanlovning cheklanganligini tan olish kerak, bu o'z-o'zidan nafaqat umumiy sug'urta va xususan, hayotni sug'urtalash, balki ko'p jihatdan butun mahalliy iqtisodiyotning holatini oldindan belgilab beradi. Ushbu vaziyatning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- istiqbolli strategiyaning xamon ishlab yaiqish jarayonidaligi;
- u yoki bu biznes, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida, qiymatini baholash uchun rivojlangan fond bozorining yo'qligi;
- hayotni uzoq muddatli sug'urtalashni rivojlantirish va kafolat mexanizmlarini yaratish qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi;
- aktivlarni professional boshqarish bo'yicha ishonchli investitsiya kompaniyalari, ishonch bildiruvchi va boshqa shunga o'xshash fondlarning (jamg'armalarning) mavjud emasligi;
- mahalliy sug'urta kompaniyalari zahiralari miqdorining kamligi; sug'urtalovchilarning bozor vaziyatini baholash uchun yetarli tajribaga ega emasligi va boshqalar.



Mahalliy sug'urta bozorini faqat hayotni ixtiyoriy ravishda sug'urtalash keng miq'yosda qo'llangandagina tashkil etilgan va rivojlangan deb hisoblash mumkin, uning rivojlanishi, boshqa sug'urta turlari kabi, bizning fikrimizcha, quyidagi rag'batlantirishlarning mavjudligini taqozo etadi:

- hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi puxta o'ylangan siyosatining mavjudligi;
- jamiyat tomonidan hayotni sug'urtalashga bo'lgan ishonchini qayta tiklash va hayotni sug'urtalash bozorining barcha ishtirokchilarining mavqeini konsolidatsiyalash uchun sharoit yaratish.

O'zbekistonda hayotni sug'urtalashni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun quyidagilar nazarda tutilgan yo'l xaritasi ishlab chiqilishi zarur:

- sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan ixtiyoriy sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish va sug'urtalovchilar tomonidan shaxsiy sug'urta, hayotni sug'urtalash bo'yicha keng turdagi mahsulotlar qatorini, shu jumladan sug'urtalovchilar tomonidan olingan mablag'larni investitsiya qilishning turli sohalarini nazarda tutuvchi mahsulotlarni yaratish uchun huquqiy asosni ta'minlash;
- sug'urta xizmatlarini, shu jumladan sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha sug'urta xizmatlarini elektron sotish usullarini kengaytirishni me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minlash, sug'urta shartnomalarini elektron hujjat shaklida tuzishda sug'urtalovchilar uchun majburiy qoidalarni, elektron polisning qog'ozdagi sug'urta polisiga tengligini tan olish shartlarini belgilash;
- fuqarolar va yuridik shaxslarni hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish shartnomalarini tuzishga rag'batlantirish shakllari va usullarini belgilash (soliq solish tamoyillarini o'zgartirish, kam ta'minlangan fuqarolar uchun xaqlarni subsidiyalash va boshqa sohalar).

Hayotni sug'urtalashni rivojlantirish uchun eng muhim rag'batlantirish - bu sug'urta turiga davlat ehtiyojining mavjudligi hisoblanadi. Aholi ehtiyojlarini shakllantirish jamiyat tomonidan hayotni sug'urtalashga ishonch mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Mutaxassislarining fikricha, mamlakatimizda hayotni sug'urtalashning an'anaviy turlarini rivojlantirish yo'lidagi asosiy to'siq axborotning kamligi va aholining sug'urta mahsulotlariga bo'lgan ishonchining pastligidir. Aholi ham, mahalliy tadbirkorlar ham sug'urtaviy himoyani sotib olish zarurligini anglashi, o'z yaqinlarining hayoti va sog'lig'ini, shuningdek, moddiy farovonligini asrash uchun uning mas'uliyati me'yorlarini tushunishi kerak.

Taklif etilayotgan hayotni sug'urtalash xizmatlari ko'lamining kengligi aholining xabardorligi va kundalik hayotda ushbu xizmatlarga bo'lgan talab darajasiga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, mahalliy sug'urtalovchilar aholining sug'urtaga qiziqishini oshirishga, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali hayotni sug'urtalashning an'anaviy va yangi ommaviy turlari bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga hissa qo'shishlari kerak. Shu bilan birga, mahalliy sug'urtalovchilar reklama bilan bir qatorda sug'urta tashviqoti bilan ham shug'ullanishlari kerak.

Hozirgi zamondagi O'zbekistonda hayotni sug'urtalash bozorini rivojlantirish omillari va rag'batlantirishlarining tahlilini yakunlab, quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Jahon iqtisodiyotining beqarorligi va global moliyaviy inqirozlar ehtimolini hisobga olgan holda, sug'urtalovchilar uzoq muddatga kafolat bera olmaydi. Aholining ularga, qolaversa, boshqa moliya institutlariga ham ishonch darajasi yetarli emasligi aniq. Hayotni sug'urtalash sug'urta mukofotlarini kapitallashtirish jarayoniga asoslanganligi sababli, ushbu turdagi sug'urta xizmatlari sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holati va barqarorligiga jiddiy talablar qo'yadi.
2. Sug'urta bozorining normal faoliyat ko'rsatishi uchun sug'urtaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy normativlarni (me'yorlarni) qat'iylik bilan ishlab chiqish va joriy etish zarur. Ushbu normativlar xavflarni baholashni hisobga olgan holda o'z kapitali miqdori va aktivlar miqdori o'rtasidagi oxirgi nisbatni; aktivlarning majburiyatlardan eng kam darajada oshib ketishi darajasini (to'lov qobiliyati marjasi); sug'urta majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lgan sug'urta zaxiralari darajasini; balans likvidligi ko'rsatkichlarini; alohida xavf uchun eng yuqori darada javobgarlikni aniq belgilashlari kerak.
3. O'zbekistonda hayotni sug'urtalash sohasini yanada rivojlantirish quyidagi rag'batlantirishlarning mavjudligini taqozo etadi:
 - hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi puxta o'ylangan strategiyaning mavjudligi;



- jamiyat tomonidan hayotni sug'urtalashga bo'lgan ishonchini qayta tiklash va sug'urtalashni targ'ib qilish orqali hayotni sug'urtalash bozorining barcha ishtirokchilarining mavqeini konsolidatsiyalash. O'zbekistonda hayotni sug'urta qilish ayniqsa uzoq muddatli hayotni sug'urta qilish aholining ijtimoiy himoya qilishda asosiy o'rinni egallashi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni.
2. Sorek, G., & Benjamin, D. (2016). Health insurance mandates in a model with consumer bankruptcy. *Journal of Regulatory Economics*, 50(2), 233-250. doi:10.1007/s11149-016-9302-x.
3. Rey, D., Garrido, A., & Calatrava, J. (2016). Comparison of Different Water Supply Risk Management Tools for Irrigators: Option Contracts and Insurance. *Environmental and Resource Economics*, 65(2), 415-439. doi:10.1007/si 0640-015-9912-2.
4. Шахов В.В. Страхование: Учебник для вузов. – М. ЮНИТИ, 2001. – 311 б.
5. Ефимов С. Л. Энциклопедический словарь: Экономика и страхование. – М.: Церих-ПЭЛ, 1996. - 528 б.
6. Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. Страхование: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 462 с.
7. Дюжиков Е.Ф. Перспективы сотрудничества стран СНГ в области страхования // Финансы. - 2000. – №6. -С.42-44
8. Таракуцяк А.О. Страховые услуги: Учебное пособие. – К.: Из-во: Европа, 2003. –584 с .
9. Плис В.И. Страхування: Навч. посібник – К.: Каравела, 2005. – 392с.
10. Базилевич В.Д., Базилевич К.С. Страхова справа. – 4-те вид., перероб. – К.: Знання, 2005. – 351 с.
11. Александрова М.М. Страхування: Учебно-методичкое пособие. – К.: ЦУЛ, 2002 – 208с.
12. Базилевич В.Д., Базилевич К.С. Страхова справа. – 4-те вид., перероб. –К.: Знання, 2005. – 351 с.;
13. Г. Халикулова . О влиянии страховой активности на инновационное развитие экономики республики Узбекистан. – Общество и экономика, 2020.
14. K.G. Tadjimuratovna. Development of the insurance market in the digital economy. Publishing House Education and Science sro – 2023.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.